



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

VOLUME 7 / 2024

LABOR ECONOMICS

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

scientific electronic journal

2024 yil 4-son

Volume 10, Issue 4, 2024



**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI
VA INSON KAPITALI**
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 4-2024

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ**

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog‘lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:**(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:**(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., (DSc), dots.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:**(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)
Keynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich**Veb-administrator (Web admin):** Musayev Xurshid Sharifjonovich

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

| | | |
|--|---|-------|
| S.B.G'oyipnazarov I.A.Bakiyeva S.M.Kurbanbayeva | <i>Change of professions and skills in the field of tourism under the influence of artificial intelligence.....</i> | 6-19 |
| S.S.Amirdjanova | <i>Приоритетные направления занятости населения и организационно-экономические механизмы его реализации.....</i> | 20-33 |

INSON KAPITALI

| | | |
|---|---|-------|
| A.B.Irmatova A.M.Saidahmadov | <i>Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirishda o'qitish tizimi</i> | 34-50 |
| F.O.Odilova | <i>Касб-хунар таълими битирувчиларининг касбий кўникмаларини оширишга таъсир кўрсатувчи омиллар</i> | 51-60 |
| T.N.Azimov | <i>Роль высшего образования в обеспечении устойчивого роста человеческого капитала</i> | 61-78 |
| T.B.Shomurodov | <i>Oziq ovqat xavfsizligini ta'minlashning inson kapitalini rivojlanishiga ta'sirini baholash</i> | 79-86 |

INSON TARAQQIYOTI

| | | |
|----------------------------|--|---------|
| Sh.D.Akishova | <i>O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali moliyaviy salohiyatni oshirishning zamonaviy holati.....</i> | 87-93 |
| X.X.Yaxshimuratova | <i>Mamlakat aholisining turmush farovonligini oshirishda iste'mol kreditlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan obyektiv zarurligi.....</i> | 94-100 |
| Z.K.Murtozayeva | <i>The role of public procurement in the project financing system formed on the basis of public opinion in the Republic of Uzbekistan.....</i> | 101-109 |
| Ch.O'.Ro'zimurodova | <i>Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish: zamonaviy tendensiyalar va asosiy o'zgarishlar.....</i> | 110-120 |
| T.B.Shomurodov | <i>O'zbekistonda aholi daromadlarining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini baholashning metodologiyasini takomillashtirish.....</i> | 121-130 |

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH

| | | |
|---------------------|---|---------|
| O.A.Norboyev | <i>Мулкий муносабатлар механизмини такомиллаштириш.....</i> | 131-141 |
|---------------------|---|---------|

| | | |
|---|--|---------|
| T.B.Shomurodov | <i>Daromad tengsizligining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri: rivojlanayotgan mamlakatlar misolida.....</i> | 142-150 |
| MIGRATSIYA | | |
| Z.T.Jumanova | <i>Turizm sohasi faoliyatini statistik tahlil qilish.....</i> | 151-161 |
| INSON RESURLARINI BOSHQARISH | | |
| M.F.Abdumannofova | <i>Inson resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning tendensiyalari</i> | 162-171 |
| G.R.Kuziyeva | <i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ishchi kuchi samaradorligini oshirishda innovatsiyalarning ta'sirini baholash</i> | 172-180 |
| G.R.Kuziyeva | <i>Ishlab chiqarishda innovatsiyalarning joriy etilishining ishchi kuchi samaradorligiga ta'sirini baholash</i> | 181-188 |
| TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH | | |
| S.K.Mansurov | <i>Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda tovarlar eksportining o'рни va ahamiyati</i> | 189-203 |
| S.U.Ismailova | <i>Роль цифровых маркетинговых стратегий в обеспечении устойчивого экономического роста в цифровой экономике</i> | 204-213 |
| Sh.Sh.Atadjanova | <i>Turistik destinatsiya raqobatbardoshligini oshirish orqali mintaqada turizmni barqaror rivojlantirish</i> | 214-221 |
| D.B.Fayziyeva | <i>Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarining samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish</i> | 222-232 |
| Sh.U.Karimova | <i>Mintaqada turizmni rivojlantirishda turistik resurslardan unumli foydalanish</i> | 233-238 |
| G.R.Kuziyeva | <i>O'zbekistonda innovatsiyalarning yapli ichki mahsulotni diversifikatsilayalashdagi rolini baholash...</i> | 239-247 |
| Sh.S.Sayfutdinov D.T.Alijonova | <i>Hududiy turizm bozorini barqaror rivojlanishining nazariy asoslari</i> | 248-254 |
| GENDER TENGLIGI | | |
| B.A.Xonturayev | <i>Ta'lim institutlarini jamiyatga ta'sirini gender indeksleri asosida baholash</i> | 255-270 |

MUNOSIB MEHNAT

S.B.G'oyipnazarov

Barriers to the adoption of Industry 4.0 technologies in the practice of occupational safety and health of smes...

271-281



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA ISHCHI KUCHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING TA`SIRINI BAHOLASH

Kuziyeva Gulnoza Rashidovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida katta o'qituvchisi

e-mail: g.kuziyeva@tsue.uz

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a134

Annotatsiya. Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ishchi kuchi samaradorligini oshirishda innovatsiyalarning o'рни va ahamiyati tahlil qilingan. Ishchi kuchi unumdorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, shuningdek, mehnat jarayonlarini raqamlashtirish kabi innovatsion yondashuvlarning ta'siri ko'rsatib berilgan. Muallif ishchi kuchi samaradorligini oshirish orqali tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini mustahkamlash, xarajatlarni optimallashtirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkoniyatlarini yoritadi. Maqolada o'zgaruvchan bozor talablariga moslashish uchun innovatsiyalarning tadbirkorlikda strategik ahamiyati misollar va statistik ma'lumotlar asosida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: avtomatlashtirish, sun'iy intellekt, robototexnika, innovatsiya, resurs.

ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ИННОВАЦИЙ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТРУДОВЫХ СИЛ В МАЛОМ БИЗНЕСЕ И ЧАСТНОМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ

Кузиева Гульноза Рашидовна

Ташкентский государственный экономический университет

Старший преподаватель кафедры экономической теории

Аннотация. В статье проанализирована роль и значение инноваций в повышении производительности труда в малом бизнесе и частном предпринимательстве. Показано влияние таких инновационных подходов, как внедрение современных технологий, автоматизация производственных процессов и цифровизация трудовых операций, на рост производительности труда. Автор освещает возможности укрепления конкурентоспособности субъектов предпринимательства, оптимизации затрат и улучшения качества продукции за счет повышения эффективности труда. В статье обосновано стратегическое значение инноваций в предпринимательской деятельности для адаптации к изменяющимся рыночным требованиям на основе примеров и статистических данных.

Ключевые слова: автоматизация, искусственный интеллект, робототехника, инновация, ресурсы.

EVALUATION OF THE IMPACT OF INNOVATIONS IN INCREASING LABOR EFFICIENCY IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP

Kuziyeva Gulnoza Rashidovna

Tashkent State University of Economics

Senior Lecturer, Department of Economic Theory

Abstract. The article analyzes the role and significance of innovations in increasing labor productivity in small businesses and private entrepreneurship. It highlights the impact of innovative approaches such as the implementation of modern technologies, automation of production processes, and digitalization of labor operations on improving labor efficiency. The author emphasizes the opportunities for strengthening the competitiveness of entrepreneurial entities, optimizing costs, and improving product quality by enhancing labor productivity. The strategic importance of innovations in entrepreneurship for adapting to changing market demands is substantiated with examples and statistical data.

Keywords: automation, artificial intelligence, robotics, innovation, resources.

Kirish

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu sektor nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish, balki aholi daromadini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda ham yetakchi ahamiyatga ega. Biroq, raqobatbardoshlikni ta‘minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va ishchi kuchi unumdorligini oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Mazkur muammo kontekstida innovatsiyalarning o‘rni alohida e‘tiborga sazovor. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, jarayonlarni avtomatlashtirish, va mehnatning ilg‘or uslublarini qo‘llash orqali mehnat samaradorligini oshirish nafaqat resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi, balki kichik biznesning bozor talablariga moslashuvchanligini ham kuchaytiradi. Ushbu maqola kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ishchi kuchi samaradorligini oshirishda innovatsiyalarning ta‘sirini tahlil qilishga va ularning iqtisodiy natijalarga ko‘rsatgan ijobiy ta‘sirini baholashga bag‘ishlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ishchi kuchi samaradorligini oshirishda innovatsiyalarning ahamiyatini yorituvchi ko‘plab ilmiy va amaliy ishlar mavjud. Ushbu bo‘limda sohani o‘rganish bo‘yicha turli tadqiqot va manbalar tahlil qilinadi.

Ilmiy adabiyotlarda innovatsiyalarni qo‘llashning asosiy afzalliklaridan biri sifatida ishlab chiqarish jarayonlarining optimallasuvi va ishchi kuchi samaradorligining oshishi ko‘rsatiladi. Masalan, Schumpeterning iqtisodiy rivojlanish nazariyasida innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida e‘tirof etiladi. Uning fikricha, yangi texnologiyalar va jarayonlar mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshiradi.

Kichik biznesning innovatsiyalarga tez moslasha olish qobiliyati bu sektorning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Freeman va Soete (1997) tadqiqotlariga ko'ra, kichik biznes subyektlari o'z faoliyatida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda katta imkoniyatlarga ega, chunki ular tashkilot tuzilmalari nisbatan moslashuvchan va qaror qabul qilish jarayonlari tez amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali mehnat unumdorligini oshirish innovatsiyalarni qo'llashning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Gartner (2018) tadqiqotlariga ko'ra, avtomatlashtirilgan texnologiyalar mehnat xarajatlarini kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan birga, avtomatlashtirish yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini ham beradi, chunki yuqori malakali kadrlar talab etiladi.

Raqamli texnologiyalar va ularning mehnat jarayonlariga ta'siri so'nggi yillarda dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Brynjolfsson va McAfee (2014) raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mehnat unumdorligini oshirishda muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali o'z mahsulдорligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Turli davlatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va innovatsiyalarni joriy etishga qaratilgan dasturlar tahlil qilinadi. Masalan, Germaniyaning "Mittelstand" modeli kichik va o'rta biznesda innovatsiyalarni qo'llash va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan strategiyani o'z ichiga oladi. O'zbekiston tajribasida "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi kichik biznesda innovatsiyalarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Tahlil qilingan adabiyotlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda innovatsiyalarni joriy etishning samaradorligini tasdiqlaydi. Innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish orqali ishchi kuchi unumdorligini oshirish, korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkinligi aniqlangan. Shu bilan birga, innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat qo'llab-quvvatlashi, moliyalashtirish va kadrlar tayyorlash masalalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ishchi kuchi samaradorligini oshirishda innovatsiyalarning ta'sirini baholash uchun quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llaniladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda innovatsiyalarning ahamiyatiga oid mavjud ilmiy ishlar, maqolalar, va statistik ma'lumotlar o'rganiladi. Bu bosqichda innovatsion texnologiyalar va mehnat samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga e'tibor qaratiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyati bo'yicha amaliy ma'lumotlar to'planadi. Ishchi kuchi samaradorligini oshirishda qo'llanilgan

innovatsiyalar (avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalar, yangi uskunalar) samaradorligi iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali baholanadi.

Korrelyatsion tahlil innovatsiyalarni joriy etish va ishchi kuchi samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun qo'llaniladi.

Regression modeli innovatsion yondashuvlarning samaradorlikka ta'sir darajasini kvantitativ baholash uchun ishlatiladi. Innovatsiyalarni qo'llagan va qo'llamagan kichik biznes subyektlari o'rtasidagi samaradorlik ko'rsatkichlari solishtiriladi. Ushbu usul innovatsiyalarni joriy etishning iqtisodiy natijalarga ta'sirini ko'rsatadi.

Olingan natijalar asosida ishchi kuchi samaradorligini oshirish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlarga innovatsiyalarni joriy etishda tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Mazkur metodologiya tadqiqot natijalarining aniqligini ta'minlash va innovatsiyalarni tadbirkorlik faoliyatiga samarali tatbiq etish bo'yicha asosli xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Natijalar va tahlillar

Mazkur tadqiqot davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ishchi kuchi samaradorligini oshirishga innovatsiyalarning ta'sirini o'rganish uchun nazariy va amaliy yondashuvlar qo'llanildi. Quyida tadqiqot natijalari asosida chiqarilgan asosiy xulosalar va ularning tahlili keltirilgan:

Innovatsion texnologiyalarni qo'llagan kichik biznes subyektlarida ishchi kuchi samaradorligi sezilarli darajada oshgani aniqlandi.

Raqamli avtomatlashtirish tizimlarini joriy etgan korxonalarda mahsuldorlik 25-30% ga oshgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish jarayonlariga texnologik yangiliklarni kiritish nafaqat vaqtni tejash, balki ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish imkonini ham beradi. Avtomatlashtirilgan texnologiyalarni qo'llagan korxonalar xodimlarning takrorlanuvchi ishlarini kamaytirish va yuqori malakali vazifalarga e'tibor qaratish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Bunday korxonalarda xarajatlar 20-25% ga qisqargan, bu esa foyda marjasining oshishiga olib kelgan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarni joriy etish orqali kichik biznes subyektlari resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.


Ishchilarning malakasini oshirish va samaradorlik innovatsion texnologiyalarni joriy etish yangi bilim va ko'nikmalar talab qilganligi sababli, ishchilarni qayta tayyorlash dasturlariga ehtiyoj oshgan. Ishchilarning malakasi oshirilgan korxonalarda mehnat samaradorligi 15-20% ga ko'paygan. Bu ko'rsatkich innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun kadrlar tayyorlash muhimligini ta'kidlaydi.

Raqobatbardoshlikning kuchayishi innovatsiyalarni muvaffaqiyatli qoʻllagan kichik biznes subyektlari oʻz mahsulotlarini yangi bozorlar uchun eksport qilish imkoniyatini yaratgan.

Statistik koʻrsatkich innovatsion korxonalarining 40% yangi bozor segmentlariga kirishga muvaffaq boʻlgan. Tahlil shuni koʻrsatadiki, innovatsiyalar raqobatbardoshlikni oshirish va korxonaning barqaror oʻsishini taʼminlaydi.

1-rasmda keltirilgan statistik maʼlumotlar Oʻzbekiston Respublikasi boʻyicha korxonalar va tashkilotlarning innovatsion faoliyati hajmining yillar davomida qanday oʻzgarib borganligini aks ettiradi. Ushbu maʼlumotlarni tahlil qilamiz:

Yillar boʻyicha innovatsion hajm oʻsishi 2014 yilda innovatsion faoliyat hajmi 7043 birlikni tashkil qilgan. 2018 yilga kelib, bu koʻrsatkich 28871,5 birlikka yetgan. Ushbu davrda oʻsish sezilarli darajada tez surʼatlarda kuzatilgan. Bu innovatsion faoliyatga eʼtibor kuchayganini va bozor talablari asosida texnologik yangiliklar joriy etilganini anglatadi.



1-rasm. Korxonalar va tashkilotlarning innovatsion hajmi.⁴³

2019-yilda innovatsion faoliyat hajmi 26811,4 birlikni, 2020 yilda esa 31142,8 birlikni tashkil etgan. 2019 yilda 2018 yilga nisbatan pasayish kuzatilgan boʻlsa-da, 2020 yilda innovatsion hajm yana oʻsish bosqichiga qaytgan. Ushbu oʻzgarish global iqtisodiy sharoitlar va pandemiya bilan bogʻliq

⁴³ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2>

bo'lishi mumkin. 2021 yilda innovatsion faoliyat hajmi 27378,6 birlikka pasaygan. 2022 yilda esa sezilarli o'sish kuzatilib, ko'rsatkich 40451,6 birlikka yetgan. Bu innovatsiyalarni joriy etishga e'tibor kuchayganligini ko'rsatadi.

1-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi.⁴⁴

| Klassifikator | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024-Q1 | 2024-Q2 | 2024-Q3 |
|--------------------------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|----------------|----------------|----------------|
| O'zbekiston Respublikasi | 57,5 | 56,9 | 54,6 | 54,5 | 42,7 | 47,5 | 53,8 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 62,3 | 61,4 | 61,8 | 64,7 | 49 | 52,7 | 64 |
| Andijon viloyati | 72,7 | 74,6 | 69,6 | 68,9 | 56,4 | 64 | 69,4 |
| Buxoro viloyati | 76,6 | 77,1 | 74,1 | 73,5 | 62,2 | 69,5 | 74,2 |
| Jizzax viloyati | 84,1 | 81 | 78,7 | 75,6 | 65,6 | 68,3 | 74,1 |
| Qashqadaryo viloyati | 74,1 | 71,8 | 70 | 70,9 | 57,6 | 64,6 | 70,9 |
| Navoiy viloyati | 27,8 | 29,2 | 27,9 | 28,3 | 18,6 | 21,5 | 25,1 |
| Namangan viloyati | 76,3 | 76,2 | 74,7 | 75,3 | 64,4 | 68 | 74,3 |
| Samarqand viloyati | 75 | 74,3 | 70,8 | 72,8 | 68,2 | 69,8 | 73,5 |
| Surxondaryo viloyati | 78 | 78,4 | 77,9 | 78 | 69,5 | 75,2 | 78,7 |
| Sirdaryo viloyati | 73 | 71,2 | 67,8 | 66,3 | 52,3 | 60,7 | 67,2 |
| Toshkent viloyati | 52 | 48,2 | 49,4 | 52 | 45,2 | 47,4 | 52 |
| Farg'ona viloyati | 73,3 | 72,4 | 71,6 | 72,5 | 64 | 68 | 72,9 |
| Xorazm viloyati | 77,4 | 75,8 | 71,9 | 72,4 | 63 | 66,6 | 72 |
| Toshkent shahri | 53,6 | 51,1 | 51,2 | 51,9 | 49,7 | 48,4 | 50,7 |

Jadal o'sish bosqichlari 2014-2017 yillarda o'sish tez sur'atlarda bo'lgan. Bu davrda innovatsiyalar iqtisodiyotning turli tarmoqlariga faol joriy etilgan.

Pasayish davri 2019 va 2021 yillarda innovatsion hajmning pasayishi kuzatilgan. Bu davr iqtisodiy va global pandemiya omillari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

2022 yildagi keskin o'sish innovatsiyalar hajmi rekord darajada oshgan. Bu davlat qo'llab-quvvatlovi va tadbirkorlik sohasidagi islohotlar natijasi bo'lishi mumkin.

⁴⁴ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2>

Iqtisodiy barqarorlik innovatsion hajmning o'sishi iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlarini aks ettiradi. Innovatsiyalar korxonalar va tashkilotlar raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynagan.

Davlat siyosatining ahamiyati innovatsion faoliyatga oid davlat dasturlari va islohotlar ko'rsatkichlarga sezilarli ta'sir qilgan.

Pandemiya ta'siri 2020-2021 yillardagi o'zgarishlar global pandemiyaning iqtisodiy faoliyatga ta'sirini ko'rsatadi. Kelajak istiqbollari 2022 yildagi keskin o'sish innovatsion jarayonlarning yana jadallashganini ko'rsatadi. Bu tendensiyaning davom etishi iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir qiladi.

1-jadval O'zbekiston Respublikasi va uning hududlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushini ko'rsatadi. 2020-2024-yillar davomidagi o'zgarishlar hamda tendensiyalar hududlar kesimida tahlil qilinadi.

Respublika bo'yicha umumiy ko'rsatkichlar 2020 yilda O'zbekiston bo'yicha kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 57,5% ni tashkil etgan.

2024 yilning uchinchi choragiga kelib, ushbu ko'rsatkich 53,8%ga yetgan.

Tendensiya ulushning yildan-yilga pasayishi kuzatilmoqda. Bu pasayish kichik biznesning umumiy iqtisodiyotdagi o'rnining nisbatan kamayganidan dalolat beradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi ulush 2020 yildagi 62,3% dan 2024 yilning uchinchi choragiga kelib 64% ga ko'tarilgan. Barqaror o'sish kuzatilmoqda, bu kichik biznesning hudud iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

Buxoro viloyati 2020 yilda ulush 76,6% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 74,2% ga tushgan. Pasayish kuzatilayotgan bo'lsa-da, ko'rsatkichlar hali ham yuqori darajada qolmoqda.

Navoiy viloyati ulush 2020 yilda atigi 27,8% bo'lgan, 2024 yilning uchinchi choragida esa 25,1%ga tushgan. Hududda kichik tadbirkorlik nisbatan past darajada rivojlangan bo'lib, ulush doimiy ravishda past ko'rsatkichda qolmoqda.

Surxondaryo viloyati 2020 yilda ulush 78%, 2024 yilning uchinchi choragida esa 78,7% ga yetgan. Barqaror o'sish kuzatilmoqda, bu kichik tadbirkorlikning hududda iqtisodiy hayotda yetakchi o'rinda ekanligini ko'rsatadi.

Toshkent shahri ulush 2020 yilda 53,6% bo'lgan, 2024 yilga kelib esa 50,7% ga pasaygan. Toshkentda kichik biznesning ulushi kamayib bormoqda. Bu yirik biznes va sanoatning ahamiyatining oshishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

O'zbekiston bo'yicha jami ko'rsatkichlar pasayish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Bu iqtisodiyotda yirik korxonalarining ulushi oshib borayotganini anglatadi. Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi eng yuqori (78-84% oralig'ida). Navoiy viloyati va Toshkent shahri kichik biznesning nisbatan past ulushga ega hududlardan biri hisoblanadi. Kichik biznesning ulushi barqaror saqlangan hududlar (masalan, Qoraqalpog'iston va

Surxondaryo) iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda kichik tadbirkorlikning ahamiyatini ko’rsatmoqda.

Davlat qo’llab-quvvatlashining ahamiyati innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun davlat tomonidan kichik biznes subyektlariga qo’shimcha moliyaviy yordam va imtiyozlar taqdim etilgan. O’zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish uchun qabul qilingan “Raqamli O’zbekiston-2030” strategiyasi doirasida qo’llanilgan dasturlar korxonalar uchun keng imkoniyatlar yaratgan.

Natijalar shuni ko’rsatadiki, davlat qo’llab-quvvatlovi kichik biznesda innovatsiyalarni joriy etishni rag’batlantiradi. Tadqiqot natijalari innovatsiyalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ishchi kuchi samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam berishini ko’rsatdi. Innovatsiyalarni joriy etish mahsulot sifati va ishlab chiqarish hajmini oshirish, mehnat xarajatlarini kamaytirish va korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun malakali kadrlar tayyorlash va davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash muhim omillar sifatida baholandi.

Xulosa

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ishchi kuchi samaradorligini oshirish innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni joriy etishga bevosita bog’liq. Ushbu tahlillar asosida quyidagi xulosalar keltiriladi:

Innovatsiyalarning muhim roli ishchi kuchi samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar, yangi ishlab chiqarish usullari va zamonaviy boshqaruv tizimlari samarali natija beradi. Innovatsiyalar kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Tahlillar ko’rsatmoqda, ayrim hududlarda kichik biznesda innovatsiyalar samaradorligi yuqori bo’lsa-da, boshqa hududlarda bu jarayon sust rivojlanmoqda. Hududiy imkoniyatlarni hisobga olgan holda, maqsadli dasturlar joriy etilishi zarur. Ishchi kuchining sifatini oshirish innovatsion texnologiyalarni joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ishchi kuchining malakasini oshirishni talab qiladi. Shu sababli, o’quv dasturlari va tayyorgarlik kurslari tashkil etilishi lozim.

Davlat siyosati va qo’llab-quvvatlash kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsiyalar orqali rivojlantirish davlat tomonidan maqsadli rag’batlantirish choralarini talab qiladi. Bu soliq imtiyozlari, kreditlash va grant dasturlarini o’z ichiga olishi kerak.

Innovatsiyalarni keng joriy etish orqali kichik biznes sohasida samaradorlikni sezilarli darajada oshirish va yangi ish o’rinlarini yaratish imkoniyati mavjud. Bu iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga va hududlar o’rtasidagi farqni kamaytirishga olib keladi. Innovatsiyalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining asosiy omili bo’lib, ishchi kuchi

samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uchun ushbu jarayonni tizimli boshqarish va qo'llab-quvvatlash zarur.

Foydalangan adabiyotlarni

1. Drucker, P. F. (1993). Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. HarperBusiness.
2. Schumpeter, J. A. (1942). Capitalism, Socialism, and Democracy . Harper & Brothers.
3. World Bank Group. (2022). Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance. <https://www.worldbank.org/en/topic/smefinance>
4. OECD (2021). The Digital Transformation of SMEs. <https://www.oecd.org/publications/the-digital-transformation-of-smes-bdb9256a-en.htm>
5. Kuznets, S. (1971). Economic Growth of Nations: Total Output and Production Structure. Harvard University Press.
6. UzStat.uz (2023). O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi materiallari. <https://stat.uz>
7. European Commission. (2020). Annual Report on European SMEs 2020/2021. <https://ec.europa.eu/growth/smes>
8. UNDP (2021). Innovative Approaches for Small Business Growth. <https://www.undp.org>
9. Asian Development Bank (2021). Supporting Small and Medium-Sized Enterprises in Developing Asia. <https://www.adb.org/publications>
10. Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC). (2019). Innovatsion biznesni rivojlantirishda xalqaro tajriba. <https://www.ifc.org>

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13

Tashkent, Uzbekistan

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz